XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, +998 62 385 5336,
Xalq_deputatlari_Yangiariq_tumani_kengashi24@gmail.com

2026-yil 31-mart VII-25-41-12-179-K/26 Yangiariq tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining tumandagi ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab, obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgan. Bunda, chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,

budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangiariq tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov tariflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

- tumanning markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish;

- tasdiqlangan tariflarning belgilangan tartibda qo‘llanilishini ta’minlash;

- xizmatlardan foydalanuvchi subyektlarga tariflar to‘g‘risida axborot berilishini ta’minlasin.

4. Yangiariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasining maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatidan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishi ixtiyoriy qilib belgilansin.

5. Ushbu qaror tuman hokimligining “Yangiariq ovozi” gazetasida e’lon qilinsin.

6. Tuman hokimining axborot xizmati, ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Azimov:

- mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Ollaberganov zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **ABDULLAYEV BAXTIYOR OLIMOVICH**

Xalq deputatlari Yangiariq tumani
Kengashining
2026-yil 31-martdagi
VII-25-41-12-179-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Yangiariq tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan toifa va hudud	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
Yangiariq tumanidagi markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Yangiariq tumanidagi markaziy ko‘chalar bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari	Obodonlashtirish xizmtlari	m^2	700